

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.D.Baxronov	
Yangilanayotgan O'zbekistonda yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalashda etnomadaniyatning o'рни.....	201
H.S.Ergashev	
Sharq mutaffakirlari ijodida shaxs ma'naviy kamolotiga oid falsafiy qarashlar evolutsiyasi	207
I.T.Boltaboyev	
Temuriylar davri mutaffakirlari tasavvufiy-falsafiy qarashlarida komil insonga oid g'oyalarning rivojlanishida Amir Temurning o'рни.....	212
Sh.O'.Ahrorova	
Jamiyat ma'naviy muhitida madaniyat va san'atning o'рни.....	216
U.X.Xolmatov	
Axboriy kurashlar sharoitda millatlararo munosabatlarni mustahkamlashning milliy-ma'naviy omillari	220
F.B.Rahmonova	
O'zbekistonda xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonliklardan himoya qilishning falsafiy-deterministik tahlili	225
J.Saburov	
Buxoro amirligida tasvvuf ilmi uzviyligi va ijtimoiy madaniy hayotga uyg'unligi hamda ta'siri	230
B.A.Pulatov	
Harbiy qahramonlik ideallari asosida yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning falsafiy omillari	236
S.S.Evatov	
Musulmon sharqi falsafiy tafakkurining takomil bosqichlari va unga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar xususida.....	240
A.Sh.Raximov	
Yangi O'zbekistonning ma'naviy yuksalish jarayonida yoshlar vatanparvarligi fenomenining ijtimoiy-falsafiy tavsifi	245
	SIYOSAT
Sh.Ismoilov	
O'zbekistonda ijtimoiy himoya – davlat siyosatidagi ustuvor yo'nalish	249
D.Sh.Mahkamov	
Hakamlik sudi va davlat sudlari o'rtasidagi farqlar	252
R.Nurimbetov	
Shanxay hamkorlik tashkiloti istiqbollari: O'zbekiston yondoshuvlari	255
B.X.Allamurodov	
Digital diplomacy in the foreign policy of Central Asian countries (using the example of Uzbekistan and Kazakhstan)	258
M.B.Nabiyev	
Jamoat birlashmalarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi.....	265
N.Madumarova	
Kasaba uyushmalari notijorat tashkilotlarning alohida shakli sifatida	269
A.A.Buriyev	
Sudlar orqali intellektual mulk obyektlari bilan bog'liq nizolarni hal qilishning o'рни va bu boradagi xorijiy tajriba	273
D.Mamadjonova	
Siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari	277
A.A.Ahrorqulov	
Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini huquqiy tartibga solish.....	281
	TARIX
Бурҳониддин Чалодиддин	
Мухаммадвалихан Дарвози основатель новой прогрессивной внешней политики.....	285
M.T.Musaev	
Globalashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlarning namoyon bo'lishi	292
R.A.Arslonzoda	
Отражение литературной жизни Бухары в “воспоминаниях” Садриддина Айни	297



UO'K: 92

SHARQ MUTAFFAKIRLARI IJODIDA SHAXS MA'NAVİY KAMOLOTIGA OID FALSAFIY QARASHLAR EVOLUTSIYASI**ЭВОЛЮЦИЯ ФИЛОСОФСКИХ ВЗГЛЯДОВ НА ДУХОВНОЕ СОВЕРШЕНСТВО ЛИЧНОСТИ В ТРУДАХ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ****THE EVOLUTION OF PHILOSOPHICAL VIEWS ON THE SPIRITUAL PERFECTION OF THE INDIVIDUAL IN THE WORKS OF EASTERN THINKERS****Ergashev Humoyun Samad o'g'li**

O'zbekiston milliy universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada Sharq mutaffkirlarining ta'lim-tarbiya, shaxs ma'naviy kamolotiga erishish usul va vositalari, ayniqsa yoshlarni har tomonlama kamol toptirish, ma'naviy – ahloqiy, intellektual salohiyatini jahon andozalariga mos tarzda yuksaltirish borasidagi qarashlari yoritilgan. Imom Buxoriy, Farobiy, Ibn Sino, Abu Homid G'azzoliy, Navoiy, Koshifiy, A.Avloniyning ma'naviy-ahloqiy tarbiyaga bag'ishlangan asarlarining mazmuni bayon etilgan.

Аннотация

В статье изложены взгляды восточных мыслителей на воспитание, методы и средства достижения духовного совершенства личности, особенно на всестороннее развитие молодежи, повышение ее духовно-нравственного и интеллектуального потенциала в соответствии с мировыми стандартами. Описано содержание трудов Имама Бухари, Фараби, Ибн Сины, Абу Хамида Газали, Наваи, Кошифи, А. Авлони, посвященных духовно-нравственному воспитанию.

Abstract

The article describes the views of Eastern thinkers on education, methods and means of achieving spiritual perfection of the individual, especially on all-round development of young people, raising their spiritual, moral and intellectual potential in accordance with world standards. The content of the works of Imam Bukhari, Farabi, Ibn Sina, Abu Hamid Ghazali, Navai, Koshifi, A. Avloni dedicated to spiritual and moral education is described.

Kalit so'zlar: inson kamoloti, tarbiya, "Muallimiy soniy", go'zal fazilatlar, "Shayh ur-Rais", ma'rifat, "Haqiqatga eltuvchi yo'l", Ma'naviy qadriyatlar.

Ключевые слова: человеческое совершенство, образование, «Число Учителя», прекрасные качества, «Шейх ур-Раис», просветление, «Путь к истине», Духовные ценности.

Key words: human perfection, education, "Teacher's number", beautiful qualities, "Shaykh ur-Rais", enlightenment, "The path to the truth", Spiritual values.

KIRISH

O'zbekiston zaminidan jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan, umumjahon miqyosida e'tirof etilgan mutafakkir va qomusiy allomalar yetishib chiqqan. Ajdodlardan qolgan boy meros o'zining muhimligi va ilmiy salohiyati bilan hanuzgacha butun dunyo xalqlarini lol qoldirib kelmoqda. Vatan tarixining ibrat olsa arzigulik zarvaraqlarini xolisona o'rganish va ana shunday meros namunalaridan foydalangan holda komil insonlarni shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Komil inson tarbiyasida o'zidan o'lmas meros qoldirgan ajdodlar xazinasidan foydalanish bugungi kunning vazifalaridandir. "Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri"[1]. Darhaqiqat, ajdodlar merosi ma'naviyat timsolidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xalq ma'naviyati – mazmunan keng va chuqur tushuncha. U chuqur tarixiy ildizlarga ega, muayyan xalqlarning tarixiy taqdirining o'ziga xos xususiyatlarini, ularning milliy xarakterini, mentalitetini ifoda etadi. Shunday qilib, ma'naviyat doimiy qadriyatlarni o'z ichiga oladi, ular vaqt o'tishi bilan doimo rivojlanib boradi. Ma'naviyatning barcha sohalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq, lekin axloq uning yadrosidir. Ma'naviyatni tushunishning yana bir jihati bor. An'anaviy "ma'naviyat" tushunchasi odamni ruhiy mavjudotga aylantiruvchi aql va irodani tan olishni anglatadi.

Ma'naviyat zamonaviy ma'noda eng yuksak ma'naviy qadriyatlarining ustuvorligi sifatida qabul qilinadi[2].

An'analar jamiyat qadriyatlarining ifodasidir. Bu avloddan-avlodga o'tib kelgan umumlashtirilgan ijtimoiy tajribadir. Ularning jamiyat hayotidagi o'рни shubhasizdir. Aynan urf-odatlar odamga "Adashib qolmaslikka, balki hayot tarzini zamonaviy dunyodagi tez o'zgarishga moslashishga" imkon beradi. An'analar yordamida har bir xalq o'z kelajak avlodiga ma'naviy qadriyatlarni, turmush tarzining o'ziga xos xususiyatlarini, dunyoqarashini, mentalitetini, yetkazadi.

Maqolani tayyorlashda tarixiylik va mantiqiylik tamoyillaridan; qiyosiy tahlil, analiz va sintez, umumlashtirish, dialektik metodlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tarbiya muammolari, komillik va inson kamoloti masalalarini o'z asarlarida dast urul amal qilgan ajdodlardan, muhaddis olimlardan biri Imom Buxoriydir. Uning 20 dan ortiq asarlari mavjud bo'lib, ular orasida "Al-Jome' as-Sahih" alohida o'rinda turadi. Bu shoh asar ahamiyati jihatidan Qur'ondan keyingi ikkinchi diniy manba deb e'lon qilingan. Imom Buxoriy o'z asarlarida axloq-odob haqida fikr yuritar ekan, odamlarni ota-onani e'zozlashga, ular oldidagi o'z burchlarini mukammal ado etishga da'vat etadi. Inson sifatleri haqidagi qarashlarida jaholat kishiga o'lim keltiruvchi fojea deb qaraladi. U odamlarni to'g'ri so'zli bo'lishga, va'daga vafo qilishga chorlaydi. Munofiq kishining uchta belgisini ko'rsatadi, ular: yolg'on gapirish, va'daga vafo qilmaslik va omonatga xiyonat qilishdan iboratligini aytadi. U insonning kuch-qudratini jismonan pahlavonlikda emas, balki jahd chiqqanda o'zini tuta olishda, – deb hisoblaydi.

Arastudan keyin Sharqda o'z bilimi, fikr doirasining kengligi sababli "Muallimi soniy" nomi bilan tanilgan Forobiy (873-950 yy)ning ma'naviy tarbiya masalasidagi qarashlari qimmatlidir. Tadqiqotchilar mutaffakkirning falsafa, musiqa, filologiya va boshqa tabiiy, ilmiy bilimlarning turli sohalarida 160 dan ortiq ilmiy asarlar yaratganligini qayd etadilar. "Fozil odamlar shahri" asarida hukmdorda bo'lishi lozim bo'lgan 12 xislatni sanaydiki, bu nafaqat hukmdor, amaldor uchun, balki barcha insonlar uchun juda muhimdir. Bular: mustahkam sog'lik; farosatli; xotirasi mustahkam; zehni o'tkir, o'z fikrini tushuntira oladigan notiq; bilim-ma'rifatga intiluvcha; nafsni jilovlagan bo'lishligi; Haq va haqiqatni, odil va haqgo'y odamlarni sevadigan, yolg'ondan nafratlanadigan; oriyatli bo'lishi; mol-dunyoga o'ch bo'lmasligi; adolatparvar; qat'iyatli, sabotli, jur'atli, jasur bo'lishi. Farobiy bu fazilatlarini har bir yetuk insonda ko'rishni istaydi. Allomaning "Fozil odamlar shahri", "Baht-saodatga erishuv to'g'risida", "Ihso-al-ulum", "Ilmlarning kelib chiqishi", "Aql ma'nolari to'g'risida" kabi asrlarida ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan.

Farobiy qarashlarida ta'lim-tarbiyani uzviy birlikda olib borish haqida ta'lim bergan bo'lsa ham, ammo har birining insonni kamolga yetkazishda o'z o'рни va xususiyati bor ekanligini alohida ta'kidlaydi. Farobiy inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo'lish, ularning ko'maklashuvchi yoki munosabatlariga muhtoj bo'ladi. Uning fikricha, tarbiya jarayoni tajribali pedagog, o'qituvchi tomonidan tashkil etilishi muhimdir. Chunki har bir odam ham bahtni va narsa hodisalarni o'zicha bila olmaydi. Unga buning uchun o'qituvchi lozim. Ana shu qarashlar asosida xalqimiz orasida "Ustozsizning ustozlari shayton bo'ladi", degan ibora shakllangan.

U insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l – ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lim nazariy fazilatlarini birlashtirsa, tarbiya esa tug'ma fazilat – nazariy bilimlar va amaliy kasb – hunar, xulq-odob fazilatlarini birlashtiradi. Ta'lim so'z va o'rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi, deydi. Har ikkalasi birlashsa yetuklik namoyon bo'ladi, ammo bu yetuklik bilim va amaliy ko'nikmalarni qay darajada o'rganganligiga qarab paydo bo'ladi, deb ko'rsatadi[3].

"Shayh ur-Rais" nomi bilan ulug'langan Ibn Sino falsafani ikki guruhga, ya'ni nazariy va amaliy guruhlarga bo'ladi. Nazariy guruh kishilarni o'zidan tashqaridagi borliq holati haqidagi bilimlarni egallashga yo'llasa, amaliy qism bizga bu dunyoda nimalar qilishimiz kerakligini o'rgatadi deydi.

Ibn Sino ma'rifatni egallashga da'vat etadi. Chunki ilm-fan insonga xizmat qilib, tabiat qonunlarini ochib avlodlarga yetkazishi kerak. Bu maqsadga yetishish uchun inson qiyinchiliklardan qo'rqmasligi zarur, deydi. "Ey birodarlar! Odamlarning botiri mushkulotdan qo'rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo'rqog'idir". Zero, ma'rifatli kishi jasur, o'limdan ham qo'rqmaydigan, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo'ladi.

Bilimsiz kishilar johil bo'ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, deb ularni yetuk bo'lmagan kishilar qatoriga qo'shadi. Bunday kishilardan ilmiy fikrlarni sir tutish kerakligini ta'kidlaydi.

FALSAFA

Muhammad al-G'azzoliyning ilmiy merosidagi ma'naviy-axloqiy qarashlari pedagogik ahamiyati beqiyosdir. Asarlarda axloqiy tarbiyaning asosi axloq va axloqiy me'yorlar bilan birgalikda islomiy ta'lim-tarbiya juda chiroyli bayon etilganki, uni o'rgangan har bir yosh avlod ajodolarva mos voris bo'lib yetishadi[4]. G'azzoliy "Haqiqatga eltuvchi yo'l" nomli asarida o'zini ilmga bag'ishlagan haqiqat tolibi sifatida o'z hayot hikoyasini bayon etadi va barcha toliblariga o'z yo'lidan adashmaslikni hamda zamonning alodovlariga aldanib qolmaslikni, hushyor bo'lishni maslahat bergan[5]. Xususan, "Ey farzand" nomli kitobida ilm yo'lidagi yoshlarga nasixat qilib "Xo'roz sendan o'zib ketmasin", deya ularni barvaqt uyg'onishga, tonggi barakadan bahramand bo'lib qolishga undaydi.

Alisher Navoiyning ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya masalalaridagi fikrlarida insonparvarlik g'oyalari bosh o'rinda turadi. Alisher Navoiyning fikricha, inson dunyoda hammadan yuksak, aziz va qadrlidir. Alisher Navoiy o'z davridagi barcha sof vijdonli insonlarning manfaatini himoya qildi. U inson uchun zarur bo'lgan umuminsoniy axloq qoidalarini o'rgandi, asar qahramonlari obrazida o'z qarashlarini aks ettirdi. Alisher Navoiy odamlarni axloqli va odobli bo'lishga da'vat etadi hamda axloqni bunday ta'riflaydi: "Axloq shaxsning og'ir baqolig' libosidir va libos jismning sangin debosi. Shuning bilan birga odamni bezaydigan ham axloqdir"[6].

Alisher Navoiyning fikricha, inson uchun toj, davlat va boshqalar emas, balki eng yaxshi fazilatlar har qanday boylikdan afzaldir. Alisher Navoiy xalqqa ish bilan ham, so'z bilan ham foyda keltirish kerakligini aytadi. U xalq manfaati uchun ishlaydigan, xalqning baxt-saodati uchun kurashadigan kishilarni haqiqiy odam deb biladi:

Odami ersang demagil odami,

Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami.

Navoiy ilm-ma'rifatni qadrlagan va unga homiylik qilgan. Shoir insonning ma'naviy kamolotini, avvalo, uning ilm va donish sohibi bo'la olganligida deb biladi. Ilm o'zidan o'zi bo'lmaydi, kishi faqat havas va ishtiyoq bilangina ilmga ega bo'la oladi, deb hisoblaydi. Alisher Navoiy hikmatlarida olam-olam ma'no mujassamdir. Uning hikmatlarida ilm ma'rifat, mehr-oqibat, insoniylik kabi masalalar markaziy o'rinni egallaydi.

Husayn voiz Koshifiy ham axloqiy fazilat insonda ta'lim-tarbiya orqali takomillashib boradigan jarayon deydi. Inson axloqiy fazilatlarini bayon etishda ham, tasavvuf vakillarining axloqiy talablarini izohlashda ham, har bir kasb egalarining axloqiy fazilatlarini, ya'ni kasb etikasini tushuntirishda ham ratsionallik tamoyiliga amal qiladi. Arastu singari insondagi ixtiyor erkinligi, tanlov xususiyati orqali inson axloqiy fazilatlarini yuksaltirib boradi, degan xulosaga keladi.

Jadid ma'rifatparvarlarining ham bosh g'oyasi, xalqning tafakkurini, dunyoqarashini yuksaltirish orqali mamlakatni ozod va qudratli mamlakatga aylantirish bo'lgan. Shu bois ham ta'lim-tarbiyaga alohida e'tibor berganlar. Xususan, "Tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir" deb uqtiradi, Avloniy. Tarbiya xususiy ish emas, milliy, ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq, deb hisoblaydi. Tarbiya zurriyot dunyoga kelgandan boshlanib, umrning oxiriga qadar davom etadi. U bir qancha bosqichdan - uy, bog'cha, maktab va jamoatchilik tarbiyasidan tashkil topgan. Avloniy tarbiyaning doirasini keng ma'noda tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo'ymaydi.

Ma'naviy qadriyatlar maqsadli, ijodiy, intellektual faoliyat natijasidir. Ular keng doiradagi odamlar bilan muloqotda bo'lsalar, haqiqiy ma'noga ega bo'ladilar, ular hayotining bir qismiga aylanadi, bunga xalqning ma'rifati orqali erishiladi. Binobarin, ta'lim sifatini yaxshilash siyosati, ta'lim sohasidagi sifat falsafasi konsepsiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri bu yoshlarga intellektual tarbiya berish, yangi turdagi aql-zakatni shakllantirish va atrofdagi dunyoning tez o'zgaruvchan voqealariga moslashtirilgan fikrlash uslubini yuksaltirish bilan bog'liq. Qadim zamonlardan xalq o'z ma'naviy qadriyatlari va diniy e'tiqodini yuksak qadrlagan. Shuning uchun, qiyin paytlarda ham u o'zligini yo'qotmagan.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan milliy-ma'naviy an'analar va jahon tajribasini o'zida mujassam etgan taraqqiyot modeli va milliy g'oya yaxlit ta'limot sifatida shakllantirilib, hayotga izchil tatbiq etila boshlandi. Bu nazariya, bir tomondan, insoniyat oldida ko'ndalang bo'lib turgan umumbashariy masalalarning yechimini, ikkinchi tomondan, O'zbekistonning istiqloq va taraqqiyot yo'lini belgilab berdi. Shu ma'noda, uning umumbashariy, mintaqaviy va milliy xususiyatlari mavjud. Misol tariqasida ushbu ta'limotning asosiy tushunchalari bo'lgan Vatan ravnaqi, Yurt tinchligi va Xalq

farovonligi g'oyalarini olinsa, bu g'oyalar mamlakat taraqqiyot yo'lining ustuvor tamoyillarini hamda milliy-ma'naviy rivojlanishning asl mezonlarini belgilaydigan tushunchalardir. Shu bilan birga, bu g'oyalar mintaq va jahon xalqlarining umumiy intilishlari, orzu-umidlari va tub manfaatlariga mos keladi. Chunki, dunyoda, jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasida yashaydigan barcha xalqlar va millatlar ham vatanim ravnaq topsin, yurtim tinch va hayotim farovon bo'lsin, – deya orzu qiladi. O'z vaqtida Abu Nasr Forobiy ham fozil davlat haqidagi fikrlarida odamlar, avvalo tinch-totuvlikda yashashlari lozimligini ta'kidlagan, "Odamlarga nisbatan ularni birlashtirib turuvchi ibtido – insoniylikdir. Shu tufayli odamlar odamzod turkumiga oid bo'lgani uchun ham o'zaro tinchlikda yashashi lozim". F. Mayor ham bu haqida quyidagicha yozadi "Biz o'z yaqinlarimizga qanday insoniy munosabatda bo'lsak ushbu munosabatni boshqa odamlarga nisbatan ham yoyishimiz kerak. Biz boshqalarni hurmat qilish, hatto sevishni o'rganishimiz zarur"[7].

Zamon talablari va insoniyatning azaliy ehtiyojlariga javob beradigan bunday yaxlit ta'limotning O'zbekistonda vujudga kelishi tasodifiy hol emas. Balki bu – xalqning asrlar davomida sayqallanib kelgan ma'naviyati, ma'rifati hamda ilmiy salohiyatining mantiqiy natijasidir. Bugungi kun nuqtai nazaridan katta mas'uliyat, ayni chog'da majburiyat, deb his qilmoq kerak. Binobarin, mustaqillikni asrash, mustahkamlash oson vazifa emas, uning yuki og'ir. Jahon tarixida xalqlar va mamlakatlarning siyosiy mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin mustaqillik mas'uliyatini ko'tara olmay yana yirik davlatlarga qaram bo'lib qolganligini ko'rsatuvchi misollar oz emas.

Barkamol avlod – jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi kuch. Shuning uchun ham mamlakatda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq jismonan sog'lom va ma'nan yetuk yosh avlodni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Yoshlarning barcha sohalarda huquqlarini himoya qilish maqsadida mamlakatda tegishli tashkiliy-huquqiy asoslar to'liq shakllantirilib, ular doimiy ravishda takomillashtirilmoqda. Qabul qilingan barcha qonunlar, me'yoriy hujjatlarda sog'lom avlodni shakllantirish shart-sharoitlarini to'liq qondiradigan tizimni yaratish, uning salohiyatini namoyon etish, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash, zamonaviy texnologiyalarga ega bo'lish g'oyalari aks ettiriladi.

Demokratik jamiyat qurish jarayonida yoshlarning alohida o'rni bor. Bugungi kunda mamlakat aholisining 64 foizini tashkil etuvchi yoshlar vaqt o'tishi bilan u jamiyatda hal qiluvchi kuchga aylanishi kerak bo'ladi. Mamlakatda zamonaviy yoshlarning milliy o'ziga xosligi va milliy qadriyatlarini saqash, o'qitish va rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbek xalqi kelajagi uchun uning jahon taraqqiyotidagi o'rni ko'p jihatdan Vatan va xalq farovonligi uchun xizmat qilayotgan yoshlarga bog'liq. Ma'naviy va jismonan barkamol avlodni tarbiyalash – umumxalq va umummilliy vazifadir. Shuningdek, R. Jumayev bu jarayonlarda demokratiyani o'rniga alohida e'tibor qaratish lozimligini quyidagicha tushuntiradi, "Demokratiya ham ana shu omillardan yuzaga kelib, faqat siyosiy va huquqiy hodisa emas, ayni paytda u yuksak ma'naviyat, boy madaniyat, shaxs kamoloti bilan bog'liq bo'lgan umuminsoniy, mintaqaviy, milliy qadriyatlar umumlashmasidan tashkil topadigan qadriyatdir"[8].

Yoshlar – respublikaning asosiy strategik manbai hisoblanadi. Hozirgi yoshlar mamlakatni modernizatsiya qilish, islohotlarni amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Doimiy o'zgarib turadigan yashash sharoitlari yoshlarni yangi voqelikka moslashishga, doimiy ravishda o'ziga xoslikning yangi shakllarini izlashga, hayotiy pozitsiyasini rivojlantirishga, o'z ma'naviy dunyosini yaratishga imkon beradi.

Yoshlarning ma'naviy dunyosining shakllanishi nafaqat yosh avlod, balki butun jamiyat hayoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Inqiroz, ekstremal vaziyatlarda ruhiy omilning roli keskin oshadi. Doimiy hayotiy yo'nalishlar yoshlarning zamonaviy dunyoga moslashishi va o'z hayotiy strategiyasini ishlab chiqishining shartidir. Ma'naviy madaniyat nima bo'layotganidan xabardor bo'lish imkoniyatlarini, ijtimoiy guruhlarining muloqotini, manipulyatsiya ehtimolini kamaytiradi. Axloqiy asoslarni shakllantirish, madaniyat va san'atga qiziqishni yosh avlodda tarbiyalash, yoshlarning ma'naviy salohiyatini rivojlantirish ta'lim va madaniyat sohasida ongli munosabatni joriy qilish orqali amalga oshadi. Avvalo, yoshlar dunyoqarashining qadriyat asoslarini shakllantirishda davlat siyosati quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: axloqiy-huquqiy me'yorlar, fuqarolik, vatanparvarlik, o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirish, bag'rikenglik, ekologik savodxonlik.

"Shu o'rinda men hurmatli ota-onalar, bobolarimiz va momolarimizni, jonkuyar ustoz va murabbiylarni, muhtaram ziyolilarimiz, keng jamoatchiligimizni bu masalaga befarq bo'lmasdan, yoshlar tarbiyasiga qaratilgan ishlarimizni yanada kuchaytirishga da'vat etaman. Qanchalik qiyin bo'lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo'yicha o'zimizga xos va ta'sirchan, bugungi kunga hamohang

FALSAFA

usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg'unchi va zararli g'oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma'naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur. Bunday salbiy holatlarni bartaraf etishda barchamiz, avvalo, siz, aziz yoshlar faol bo'lishingiz kerak. Xalqimizning ma'naviy qudrati va boqiy an'alarini asrab-avaylash va butun dunyoga tarannum etishga sizlar albatta qodirsiz"[9], – deydi davlat rahbari Shavkat Mirziyoyev.

XULOSA

Yurtboshimiz Oliy Majlisga murojaatnomasida ham yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga to'xtalib: —Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim. Ushbu maqsad yo'lida yoshlarimiz o'z oldiga katta marralarni qo'yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko'mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo'lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi. Shu maqsadda “Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”, degan g'oya asosida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshiramiz.

An'anaviy ijtimoiy va gumanitar fanlar insonning asosiy ehtiyojlarini o'rganishda jamiyat va shaxsning ijtimoiy rivojlanishining asosiy omili sifatida o'zini himoya qilish instinkti va “hokimiyat irodasi”ni ilgari suradi. Yoshlarni ma'naviy tarbiyalash, ularda “ma'naviy qashshoqlik”ning har qanday shakllariga qarshi kurashish qobiliyatini shakllantirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi hamda ular samaradorligining asosiy garovi bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim-tarbiya, ma'rifat haqida ajdodlarimizdan qolgan ilmiy merosni mukammal o'rganish, hayotimizga keng jalb qilish bugungi ziyolilarimizning burchidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Ta'lim va ma'rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo'l / Islom hamkorlik tashkiloti tashqi ishlar vazirlari 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutq. – Toshkent. O'zbekiston NMIU, 2017. – B. 29.
2. Erkayev A. Ma'naviyatshunoslik. – Toshkent. Ma'naviyat, 2018. – B. 96.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
4. Abu Homid G'azzoliy «Ayyuhal Valad» asarining o'zbek tilidagi tarjimai (qayta nashr) T.: Movarounnahr 2005 yil.
5. Ortikov O.R. Muhammad Abu Homid Imom G'azzoliy asarlarida ilm-ma'rifat va axloq masalalari //modern scientific challenges and trends, -C. 117-122
6. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 11-tom. Xamsa. Saddi Iskandariy. T.:“Fan”, 2002.
7. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent. O'zbekiston, 2022. – B. 42.
8. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent. G'ofur G'ulom, 1993. – B. 160.
9. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent. O'zbekiston NMIU, 2017. – B. 126-144.
10. Ibrokhimov F.A. (2023) [Modern pedagogical approaches in legal education](#). GOLDEN BRAIN. Volume 1, Issue 32. – pp. 174-180.
11. Ibrokhimov F.A. (2023) [Din va huquq](#). Academic research in educational sciences, №1. – pp. 814-816.
12. Ibrokhimov F.A. (2023) [Improving Youth Law Culture Based on the Cluster System and Modern Pedagogical Approaches](#). Miasto Przyszłości, Volume 41. – pp. 1-4.
13. Farhod Ibrokhimov. (2022) [Yangi O'zbekiston yoshlarining ma'naviy va axloqiy qarashlari xususida](#). International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education. Volume 5, Issue 28. – pp. 174-180.